

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA KO'PAYTIRISH VA BO'LISH
JADVALINI OSON O'RGATISH USULLARI, NATIJALARINI
TEKSHIRISH**

Durdona Mansurova Asatillo qizi

Samarqand viloyati Ishtixon tumani 21-umumta'lim maktabi

Boshlang'ich sinf o'qituvchisi

+99899 570 61 11

Annotatsiya: Boshlang'ich ta'limning muhim masalalaridan biri o'quvchilarda ongli va mustahkam hisoblash malakalarini shakllantirish hisoblanadi. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga jadvaldan tashqari ko'paytirish va bo'lishni o'rgatishning mazmuni, shakl, metodlari va vositalari haqida so'z boradi. Boshlang'ich sinfda og'zaki, yozma hisoblash qobiliyatlarini o'zlashtirish kundalik turmushda keng ravishda qo'llanadi, og'zaki hisob o'quvchilar oldiga, berilgan har bir aniq hol uchun qulay hisoblash usullarini olish zarurligini qo'yadi. Undan tashqari, u yozma hisoblashlarni osonlashtiradi. Ko'paytirish jadvalini barcha yoshdagi bolalar bilishlari zarur. Bu jadvalni o'rgatishda an'anaviy usullardan farqi bo'lgan Pifagor jadvalini qo'llash o'quvchilarni yodlash qobiliyatini o'zlashtiradi.

Kalit so'zlar: Pifagor jadvali, ko'paytirish usullari, og'zaki va yozma hisoblash.

EASY WAYS TO TEACH MULTIPLICATION TABLE IN PRIMARY CLASSES

Abstract: the cultivation of oral, written computational skills in the elementary class is widely used in everyday life, the oral calculation puts before the students the need to take convenient computational methods for each given specific case. In addition, it facilitates written calculations. Multiplication tables should be known to children of all ages. The application of the Pythagorean table,

which is different from the traditional methods of teaching this table, makes students develop the ability to memorize.

Keywords: Pythagorean table, multiplication methods, oral and written calculation.

Jadvaldan tashqari ko‘paytirish va bo‘lish. Maktabda matematikaning o‘qitish o‘z oldiga zamonaviy jamiyat talablariga javob beruvchi va har bir maktab bitiruvchisiga uning kelgusi yetuklik hayotida erkin va mustaqil amaliy faoliyat ko‘rsata olishga imkoniyat yaratuvchi bir nechta kafolatlangan matematik tayyorlangan darajalarini ta‘minlash maqsadini qo‘yadi. Matematikani o‘rganish o‘quvchini uning amaliy faoliyatida zarur bo‘ladigan, qo‘shimcha fanlarni o‘rganishga yordam beruvchi, ta‘lim olishni davom ettirishga asos bo‘luvchi aniq matematik bilimlar bilan qurollantiradi. U o‘quvchilarning fikrlash sifatini shakllantirish bilan ularning aqliy rivojlanishlariga ulkan hissa qo‘shadi. Bu o‘z navbatida matematik faoliyat uchun xarakterli bo‘lgan va insonga jamiyatda to‘laqonli ishtirok etish uchun zarur bo‘lgan sifatdir. «Mamlakatimiz o‘z taraqqiyotining yangi davriga qadam qo‘ygan hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi 2017–2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasi asosida barcha sohalarda keng ko‘lamli o‘zgarishlar amalga oshirilmoqda. Ana shu islohotlarning muvaffaqiyati, mamlakatimizning dunyodagi rivojlangan, zamonaviy davlatlar qatoridan munosib o‘rin egallashi, avvalo, ilmfan va ta‘limtarbiya sohasining rivoji bilan, bu borada bizning dunyo miqyosida raqobatdosh bo‘la olishimiz bilan uzviy bog‘liq...» Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Hozirgi kunda mamlakatimizda boshlang‘ich ta‘lim sohasida yangidan-yangi qator qonunlar va hukumat qarorlari qabul qilinmoqda. Joriy yilning 8-may kuni «Matematika sohasidagi ta‘lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Prezident qarori qabul qilindi. Qarorga ko‘ra, har bir tumanda (shaharda) matematika fanini chuqurlashtirib o‘qiishga ixtisoslashtirilgan maktablar bosqichma-bosqich tashkil etiladi.[1] Ko‘paytirish jadvali - matematikaning asosiy tushunchasi bilan

boshlang'ich sinflarda o'rganib, umrimiz davomida undan foydalanib kelamiz. Lekin farzandlarimiz yodlashga unchalik ishtiyoqmand bo'lishavermaydi. Shuning uchun ko'paytirish jadvalini bolalar bilan birgalikda qiziqarli tarzda o'rganishni oson yo'llari bilan tanishtiramiz. Boshlang'ich ta'limda ko'paytirish jadvalini o'qitishning asosiy maqsadi: o'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish [2]. 1-jadval Pifagor jadvali

Jadvalni yodlab olishdan avval uning mohiyatini tushunish kerak. Buning uchun ko'paytirish amalini qo'shish amaliga almashtirish lozim: bir xil sonlar nechiga ko'paytirilayotgan bo'lsa, shuncha marta qo'shib chiqiladi. Masalan, $6 \cdot 8 = 8$ ni 6 marotaba qo'shish degani. Bir xil natijalarni belgilab chiqamiz va 2 jadvalda ko'rsatamiz. Pifagor jadvali ko'paytirish amallarini bajarishda eng qulay vosita hisoblanadi. Bundan tashqari ayrim qonuniylikni ham namoyish etadi. Masalan, ko'paytiruvchilarning o'rnini almashganligi bilan natija bir xil qolaveradi: $4 \cdot 6 = 6 \cdot 4$. Bunday o'xshash javoblarni ma'lum bir ranglar bilan belgilab chiqing, belgilash yodda saqlab qolishga va adashib ketmaslikka yordam beradi. 2.jadval

Bir xil natijalarni belgilangash Pifagor jadvalini avval oson va tushunarli qismlarini o'rganib chiqishdan boshlash kerak: 1,2,5 va 10 ga ko'paytirish. Son 1ga ko'paytirilsa, son o'zgarishsiz qoladi, agar 2ga ko'paytirilsa, son 2 baravar natija beradi. 5ga ko'paytirilganda ko'paytmaning oxiri 0 yoki 5 bilan tugaydi. 10ga ko'paytirilganda esa javobida ko'paytirilgan sonning yonida 0 bilan ikki xonali ko'rinishidagi son hosil bo'ladi. O'rganilganlarni mustahkamlash maqsadida jadval uchun o'quvchilarga bo'sh Pifagor jadvalini chizib, uni to'ldirishni taklif qilish yaxshi natija beradi. Ko'paytirish jadvalni o'rganish jarayonida har bir o'quvchi o'rganishi uchun alohida yondashuv kerak, barcha uchun bir xil o'rganadigan yo'li yo'q. Asosiysi, o'quvchilarga jadvalni o'rganishni oson va qulay yo'lini topib qo'llash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://xabar.uz/uz/talim/tumanlarda-matematikaga-ixtisoslashitiril>
2. <https://azkurs.org/chirchiq-davlat-pedagogika-instituti-aniq-fanlar-fakultetimat.html?page=20>

References

1. <https://xabar.uz/uz/talim/tumanlarda-matematikaga-ixtisoslashitiril>
2. <https://azkurs.org/chirchiq-davlat-pedagogika-instituti-aniq-fanlar-fakultetimat.html?page=20>
3. Yuldashev, O. (2021). РАСЧЁТ СИЛОВЫХ ХАРАКТЕРИСТИК ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ПРОЦЕССА ОБРАБОТКИ ПОЧВЫ. НАУКА И МИР.